# 2019-yil 1-dekabr holatiga ko'ra yuridik shaxs bo’lgan korxona va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma’lumot

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma’lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

## 2019 yil 1 dekabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar 86499 tani tashkil etadi

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar 83114 ta bo'lib, 2019 yil yanvar-noyabr oylarida 17825 ta yangi tashkil etildi

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni 73375 ta bo'lib, 2019 yil yanvar-noyabr oylarida 17204 ta yangi tashkil etildi

Xorijiy sarmoya ishtirokidagi 6043 ta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda

O'tgan yilga nisbatan 990 ta korxona va tashkilotlar tugatilishi kamayganligi kuzatilgan

**86499** — Ro'yxatdan o'tgan

**83114** — Faoliyat ko'rsatayotgan

**17825** — Yangi tashkil etilganlar

# 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarni tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tahlili, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

**2019 yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar**

| | |
|---|---|
| JAMI | 17825 |
| Mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar | 12975 |
| Xususiy korxonalar | 3539 |
| Oilaviy korxonalar | 697 |
| Boshqalar | 614 |



2019-yilning yanvar-noyabr oylarida 17825 ta yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarni asosiy qismi mas‘uliyati cheklangan jamiyat va xususiy korxonalarga to’g’ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa oilaviy korxona hamda boshqa tashkiliy-huquqiy shakllarga to’g'ri keladi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




2019-yilning 1-dekabr holatiga ko'ra 86,5 mingta korxonalar va tashkilotlar ro’yxatdan o’tgan bo’lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,3 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha jamiga nisbatan 24,6% - savdo, 17,9% - sanoat, 8,0% - qurilish, 7,2% - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, 4,0% - tashish va saqlash, 3,8% - axborot va aloqa, 1,8% - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,0% - qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi hamda 31,7% - boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha (21304 ta) savdo, (15474 ta) sanoat, (6930 ta) qurilish, (6291 ta) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, (3475 ta) tashish va saqlash, (3296 ta) axborot va aloqa, (1576 ta) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (866 ta) qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi hamda (27287 ta) boshqa faoliyat turlariga to`g`ri kelmoqda.



# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko’rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 83,1 mingtani tashkil etib, o’tgan yilning shu davriga solishtirilganda 14,2 mingta (17,1%) ga o’sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tumanlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'p Yunusobod (10811 ta), Chilonzor (10703 ta), Mirzo Ulug'bek (9401 ta), Olmazor (8723 ta), Shayxontohur (8019 ta), Uchtepa (7563 ta), Yakkasaroy (7538 ta) va Mirobod tumanlari (7217 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yashnobod (6197 ta), Sirg'ali (4975 ta) hamda Bektemir (1967 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

## 2019-yil yanvar-noyabr oylarida 17825 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo’lib, bu ko’rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 6170 taga ko’pdir.



2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi

| Faoliyat turi | Ulushi |
|---|---|
| Savdo | 41,0% |
| Sanoat | 15,0% |
| Qurilish | 9,2% |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 6,5% |
| Axborot va aloqa | 3,5% |
| Tashish va saqlash | 3,3% |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 1,4% |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 1,0% |
| Boshqa turlari | 19,1% |

Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko’p savdo (7306 ta), sanoat (2680 ta), qurilish (1642 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (1159 ta) va axborot va aloqa (616 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kami esa tashish va saqlash (584 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish (250 ta) hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (184 ta) faoliyat turlari hissasiga to’g’ri kelgan.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

| | |
|---|---|
| Savdo | 7306 |
| Sanoat | 2680 |
| Qurilish | 1642 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1159 |
| Axborot va aloqa | 616 |
| Tashish va saqlash | 584 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 250 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 184 |
| Boshqa turlari | 3404 |

# Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Chilonzor (2249 ta), Uchtepa (2156 ta), Yunusobod (2090 ta), Olmazor (1999 ta), Mirzo Ulug'bek (1927 ta), Shayxontohur (1642 ta) va Mirobod (1541 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yashnobod (1341 ta), Yakkasaroy (1284 ta), Sirg'ali (1032 ta) hamda Bektemir (654 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarning tashkil etilish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2017-2019-yillarning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni**




Korxonalar sonining o'sishi, birlikda

# TIJORAT KORXONALARI

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 74,1 mingtani tashkil qildi**

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda

Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxona




Oilaviy korxona




Unitar korxona




Aksiyadorlik jamiyati




Boshqalar



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-dekabr holatiga ko'ra faoliyat ko’rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 6043 tani tashkil etdi. O’tgan yilning shu davriga nisbatan 1400 taga yoki 23,2% ga o’sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog’iston Respublikasi va Janubiy Koreya Respublikasi hissalariga to’g’ri keladi.




Faoliyat ko’rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy ulushi Rossiya Federatsiyasiga - 18,0%, Turkiya Respublikasiga - 13,2%, Xitoy Xalq Respublikasiga - 12,4%, Qozog’iston Respublikasiga - 9,2% va Janubiy Koreya Respublikasiga - 8,1% to’g’ri keladi.

2019-yil 1-dekabr holatiga

## Xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko’rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda



## Xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimidagi soni, birlikda




2019-yil 1-dekabr holatiga ko'ra faoliyat ko’rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning soni shu davrning oxirgi besh yilligiga solishtirilganda 2 barobarga ko'payib, ularning soni 6043 taga yetdi.

**2019-yil 1-dekabr holatiga**



Xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 2613 tasi qo'shma, 3430 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




## Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Mirobod tumanida 1012 ta (jamidagi ulushi 16,7%), Yakkasaroy tumani 965 ta (16,0%), Yunusobod tumanida 802 tani (13,3%), Mirzo Ulug'bek tumanida 733 ta (12,1%), Chilonzor tumanida 687 ta (11,4%), Yashnobod tumanida 502 ta (8,3%) va Shayxontohur tumanida 425 ta (7,0%) tashkil etilgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Olmazor tumanida 327 ta (5,3%), Sirg'ali tumanida 244 ta (4,0%), Uchtepa 197 ta (3,3%) hamda Bektemir tumanlarida 149 ta (2,6%)ni tashkil etgan.

# Xorijiy kapital ishtirokida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turiga to’g’ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to’g'ri keladi.



# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar






2019-yilning yanvar-noyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 1684 tani tashkil etgan. Bu ko’rsatkich esa o’tgan yilning shu davriga nisbatan 392 taga ko’paygan.

Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 276 ta, Turkiya Respublikasi - 258 ta, Rossiya Federatsiyasi - 238 ta, Qozog’iston Respublikasi - 218 ta va Koreya Respublikasi – 119 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

637
Savdo

292
Sanoat

228
Qurilish

86
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

59
Axborot va aloqa

54
Tashish va saqlash

28
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

27
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar

273
Boshqa faoliyat turlari

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan savdoda 637 ta, sanoatda 292 ta, qurilishda 228 ta hamda 86 ta yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda va 273 ta boshqa faoliyat turlari hissasiga to’g’ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda




## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining yillar kesimida o'sish dinamikasi, birlikda



# Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarni yillar kesimidagi soni, birlikda




2019-yil 1-dekabr holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko’rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 73,4 mingtani tashkil etgan. Bu ko’rsatkich o’tgan yilga nisbatan 18,7 foizga oshgan.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida 17,2 mingdan ziyod kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o’tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 35,6 foizga ko’paygan.

# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi jami ulushi (2019 yil 1-dekabr holatiga)

| • Eng katta ulushi | | • Eng kichik ulushi | |
|---|---|---|---|
| Yunusobod tumani | **12,9 %** | Yakkasaroy tumani | **9,2 %** |
| Chilonzor tumani | **12,8 %** | Mirobod tumani | **8,3 %** |
| Mirzo Ulug'bek tumani | **11,1 %** | Yashnobod tumani | **7,4 %** |
| Olmazor tumani | **10,8 %** | Sirg'ali tumani | **6,1 %** |
| Uchtepa tumani | **9,4 %** | Bektemir tumani | **2,6 %** |
| Shayxontohur tumani | **9,4 %** | | |

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 73,4 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 20,4 mingta (27,8%) – savdo, 14,8 mingta (20,2%) - sanoat, 6,6 mingta (9,1%) - qurilish, 5,9 mingta (8,0%) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 3,3 mingta (4,5%) - tashish va saqlash, 3,1 mingta (4,2%) - axborot va aloqa sohasi, 1,3 mingta (1,7%) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 0,8 mingta (1,1%) - qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, shuningdek, 17,2 mingtasi (23,4%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi %



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

**Savdo**
42,4

**Sanoat**
15,5

**Qurilish**
9,5

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**
6,7

**Axborot va aloqa**
3,5

**Tashish va saqlash**
3,4

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish**
1,4

**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi**
1,1

**Boshqa turlari**
16,6

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko’p savdo 7299 ta, sanoat 2672 ta, qurilish 1640 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 1158 ta tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada 609 ta, tashish va saqlashda 582 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko’rsatishda 242 ta hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 183 ta tashkil etilgan.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Chilonzor (2171 ta), Uchtepa (2118 ta), Yunusobod (2001 ta) va Olmazor (1937 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Yashnobod (1301 ta), Yakkasaroy (1228 ta), Sirg'ali (990 ta) hamda Bektemir (599 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda







## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimidagi soni, birlikda



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




Faoliyat ko’rsatayotgan oilaviy korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, ulardan 41,1% yoki 1149 tasi sanoat, 19,3% yoki 539 tasi savdo, 18,2% yoki 528 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 2,6% yoki 74 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,6% yoki 46 tasi axborot va aloqa, 1,5% yoki 41 tasi qurilish, 1,0% yoki 28 tasi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 1,0% yoki 27 tasi tashish va saqlash hamda 13,7% yoki 383 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning yillar kesimidagi soni, birlikda







## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %





Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi bosh mutaxassisi
E.V.Egorova
Tel.:71-230-88-31